



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / AVGUST/8-SON,
I-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, avgust.
I-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'RTA DAROMADLI MAMLAKATLARDA INNOVATSION XARAJATLARNING EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASIGA TA'SIRI	20
Karimova Xulkar Raxmanali qizi Jalg'ashova Nazira Umbet qizi	
MINTAQADA SANOAT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI	26
Mamedov Ko'palboy Masharipovich	
TA'LIM XIZMATLARINI BOSHQARISHDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA SIFATNI TA'MINLASH	30
Umarov Ravshanjon Gafurovich	
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	36
Mamurov Doniyor Eldorovich	
MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA YASHIL INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISH TAMOIYILLARI VA USULLARI	43
Ro'zimov Doniyor Soporboy o'g'li	
TOSHKENT METROPOLITENI SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH DARAJASINING DINAMIKASI VA UNI XALQARO TAJRIBA BILAN QIYOSIY BAHOLASH	49
Mansurov Xamrokul Ilxomovich	
ЦИФРОВАЯ САМООРГАНИЗАЦИЯ БУДУЩИХ МЕНЕДЖЕРОВ КАК ФАКТОР ЭФФЕКТИВНОСТИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ	56
Мирвосикий Хилола Хабибулла кизи	
XORAZM VILOYATIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING ILMIY-AMALIY TAHLILI	64
Z.Sh. Matniyozova	
DEVELOPMENT MECHANISMS OF EMBEDDED FINANCE SERVICES IN COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN BASED ON OPEN BANKING	69
Khurramova Fotima Bakhodir qizi	
IMPROVING THE PRACTICE OF FINANCING INVESTMENT PROJECTS THROUGH SYNDICATED LOANS PROVIDED BY COMMERCIAL BANKS	76
Xudaynazarov Davrbek Abdullayevich	
TASHQI SAVDO DINAMIKASI VA BANK MOLİYAVIY XAVFSIZLIGI: O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI MISOLIDA AMALIY TAHLIL	83
Babadjanov Shuxrat Atxamovich	
GREEN LENDING PRACTICED AMONG UZBEK COMMERCIAL BANKS: SURVEY- BASED ASSESSMENT OF READINESS AND CONSTRAINTS	90
Avazov Azizbek Ashurali o'g'li	
"YANGI O'ZBEKISTON – 2030" STRATEGIYASI DOIRASIDA IQTISODIY O'ZGARISHLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI	96
Amirov Otabek Xudoyberdi o'g'li	
BARQAROR YASHIL INVESTITSİYALARNING QAYTA TIKLANUVCHI ENERGETIKA RIVOJIGA ROLINI VA HISSASINI TAHLIL QILISH: O'ZBEKISTON MISOLIDA	101
Zilola Kazakova	
HUDUD SANOATIDA KAPITAL VA MEHNAT RESURLARI SAMARADORLIGINI KOB-B-DUGLAS MODEL YORDAMIDA BAHOLASH	113
Turayev Baxrom Ergashevich	



“MAHALLA BANKIRI” INSTITUTI DAVLATBANK HAMKORLIGINING OPERATSION BO‘G‘INI SIFATIDA: SAMARADORLIK MEZONLARI VA OPTIMAL YUKLAMA PARAMETRLARI	120
Nurmuratov Azamat Mamarizo o‘g‘li	
SHAHAR JAMOAT TRANSPORTI YO‘NALISHLARINING AHOLI EHTIYOJLARIGA MOSLIGINI TADQIQ ETISH (URGANCH SHAHRI MISOLIDA)	127
Abdullayeva Shahzodaxon Fazliddin qizi	
O‘ZBEKISTONDA QISHLOQ XO‘JALIGINI RO‘YXATGA OLISHNING AGRAR IQTISODIY O‘SISHNI TA‘MINLASHDAGI INSTITUTSIONAL ROLI	132
Shohujayeva Zebo Safoyevna	
Xolov Javlonbek Davronovich	
УЗБЕКИСТАН КАК АКАДЕМИЧЕСКИЙ ХАБ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	138
Эргашева Шахло Тургуновна	
БУХГАЛТЕРСКИЙ УЧЕТ КАК ИНФОРМАЦИОННАЯ ОСНОВА ФИНАНСОВОГО КОНТРОЛЯ ПРЕДПРИЯТИЯ	146
Маннапова Раъно Абборовна	
YOSHLAR TADBIRKORLIGINI MOLIVAVIY, INSTITUTSIONAL VA RAQAMLI QO‘LLABQUVVATLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN RAQAMLI MODELLARI: “3M-PLATFORMA” VA “SMART YOUTH BUSINESS ECOSYSTEM” KONSEPSIYALARI	154
Xojiyev Ma‘murjon Muxsinjon o‘g‘li	
RAQAMLI BANK XIZMATLARINING IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL XUSUSIYATLARI	163
Begimqulova Sevara Nurmamatovna	
KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI	169
Yusupov Muxiddin Soatovich	
Normaxmatov Fazliddin Nuriddin o‘g‘li	
OLIY TA‘LIMDA INNOVATSION MENEJMENT IMKONIYATLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH	177
Abdullayev Farhod Ozodovich	
“YASHIL MAKON” UMUMMILLIY LOYIHASINI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILIY-AMALIY NATIJALARI	180
Jamshidbek Bobojonov	
QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARI EKSPORTI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA KLASSTERLARNING AHAMIYATI	184
Radjabova Mavluda Ergash qizi	
STRENGTHENING MAHALLA ENTREPRENEURSHIP THROUGH AN INTEGRATED ECOSYSTEM: FUNCTIONAL LINKAGES, DIGITAL COORDINATION, AND REGIONAL EVIDENCE	189
Zafarjon Odiljonovich Tuxtasinov	
MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA GENERATIV SUN‘IY INTELLEKT INFRATUZILMASINING NAZARIY ASOSLARI	195
Saidov Jaloladdin Allaberganovich	
KORXONALARDA BOSHQARUV QARORLARINI QABUL QILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	202
Mamajonova Surayyoxon Maxmudjonovna	
PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASSTERLARIDA INNOVATSION RIVOJLANISHNING HUDUDIIY XUSUSIYATLARINI BAHOLASH METODIKASI	207
Tojiyev Sa‘dulla Muhitdinovich	
INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION IMPROVING ECONOMIC INCENTIVE AND RESOURCE-ALLOCATION MECHANISMS AS A FACTOR IN INCREASING THE EFFICIENCY OF INDUSTRIAL ENTERPRISES: EVIDENCE FROM THE “TECHNOPARK” ENTERPRISE	213
Erkinova Umidakhon Ilhom qizi	



THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE-BASED RECRUITMENT SYSTEMS ON HIRING QUALITY	218
Mutalova Manzura Abdushukur qizi	
TOMORQA XO'JALIGI FAOLIYATI BILAN BOG'LIQ NOQISHLOQ XO'JALIGI FAOLIYATINING TA'SIRINI IQTISODIY BAHOLASH	224
U.U.Nurullayev	
SHAHAR HUDUDLARIDA EKOLOGIK MONITORING TIZIMINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	230
Asqarov Akmal Anvar o'g'li	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELINI BOSHQARISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	235
Ziyodullayev Sodiqjon Mamadillayevich	
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI SOHASIDA MOLIVAVIY NATIJALAR AUDITI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING YAXLIT TIZIMI	240
Bekchanov Faxriddin Atabekovich	
MAHALLIY TURIZMNI RIVOJLANLANTIRISHNING TASHKILIYIQTISODIY MEKANIZMINING ASOSIY FUNKSIYA VA PRINSIPLARI	246
Xayrullayev Elbek Xayrulla o'g'li	
ЛИЗИНГ КАК ИНСТРУМЕНТ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБНОВЛЕНИЯ ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ УЗБЕКИСТАНА: ФИНАНСОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ И ОГРАНИЧЕНИЯ.....	250
Дадабоева Муштари Хамидиллаевна	
TIJORAT BANKLARIDA CHAKANA BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK BAHOLASH	261
Abdiraxmonov Farxod Arabboyevich	
HUDUDLAR IQTISODIY XAVFSIZLIGINI BOSHQARISH MEKANIZMLARINING NAZARIY MODELLARI	267
Jurayev Ismatulla Izzatullayevich	
FINANCIAL MODELS IN THE EDUCATION SECTOR: A COMPARATIVE INSTITUTIONAL ANALYSIS OF STATE, PRIVATE, AND MIXED FUNDING SYSTEMS	275
Imomov Inomiddin	
SANOAT KORXONALARIDA INVESTITSION JARAYONLARNI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMI.....	281
Siddiqov Abdusalom Abdumalikovich	
NOAN'ANAVIY PUL-KREDIT SIYOSATI INSTRUMENTLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA MAZMUNI.....	292
Djumonov Dilshod Safarolievich	
URBANIZATSIYA SHAROITIDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASH MUAMMOLARI.....	302
Shodmonov Nurjaxon Shokir o'g'li	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNI QO'LLAB QUVVATLASHNING IQTISODIY OMILLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	308
Reimbergenov Xurrambek Xushnudovich	
O'ZBEKISTONDA KO'CHMAS MULK BOZORI XIZMATLARINING HOZIRGI HOLATI VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	314
Sadikova Dildora Abdulla qizi	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	321
Baxadir Adilchayev	
EKOLOGIK TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH ORQALI BARQAROR RIVOJLANISHNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI	327
Ergasheva Mohinurxon Odilxon qizi	



BANK OPERATSIYALARI BO'YICHA ICHKI AUDIT AMALLARINING MAZMUNIIY VA USLUBIY TAHLILI	331
Yuldashev Xurshidbek Mamirjonovich	
РАЗРАБОТКА И ПРИМЕНЕНИЕ МОДЕЛИ КОМПЕТЕНЦИЙ ДЛЯ ГОСУДАРСТВЕННЫХ СЛУЖАЩИХ	341
Гофурова Шахрибону Комол қизи	
INNOVATION-DRIVEN BUSINESS COMPETITIVENESS THROUGH DIGITAL TRANSFORMATION AND TECHNOLOGICAL CAPABILITY	349
Sarvinoz Asamova	
HUDUDIIY INVESTITSIIYA OQIMLARINI DIFFERENSIAL BAHOLASH ASOSIDA MINTAQAVIY IQTISODIY O'SISHNI MANZILLI RAG'BATLANTIRISH.....	359
Ismoilov Azizbek Rustamjon o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH YO'LLARI BO'YICHA XORIJ TAJRIBALARI.....	368
Samiyev Mirkamol Amriddin o'g'li	
ИНВЕСТИЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В УСЛОВИЯХ СОВРЕМЕННОЙ РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКИ: СУЩНОСТЬ, РОЛЬ И ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ	372
Матчанов Умирзак Сейтжанович	
O'ZBEKISTONDA YASHIL LOGISTIKA TAMOIYILLARI ASOSIDA MULTIMODAL TRANSPORT-LOGISTIKA KORIDORLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	379
Islomjon Jamshedovich Jamshedov	
YASHIL INVESTITSIIYALARNING HUQUQIYINSTITUTSIONAL ASOSLARINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	389
Temirova Nozima Shuhrat qizi	
ELEKTRON SAVDO PLATFORMALARIDA MOLIVAVIY TAHLILNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA XALQARO TAJRIBA	395
Amanqulova Muxlisa Narsafar qizi	
MEHNAT UNUMDORLIGI VA MEHNAT RESURLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKNI BAHOLASH.....	403
Rashidov Zuhridin Sanjar o'g'li	
MINTAQI IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA KLASSTERLASHNING ASOSIY TAMOIYILLARI VA KONSEPTUAL ASOSLARI	408
Movlonova Dilrabo Nomoz qizi	
HUDUD IQTISODIY TIZIMIDA INNOVATSION INFRATUZILMANING BARQAROR RIVOJLANISHGA TA'SIRINI BAHOLASH	412
Sapayev Sindor Qadamboy o'g'li	
KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMDA KPINING AHAMIYATI VA UNI JORIY ETISHNING ILMIY-NAZARIY YONDOSHUVLARI.....	418
Botirjon Ergashov	
MO'YNA VA TRIKOTAJ MATERIALLARNI YOPISHTIRISH UCHUN SUVLI POLIMER YOPISHTIRUVCHI KOMPOZITSIIYA: TARKIBI, TAYYORLASH USULI VA XOSSALARI.....	424
Temirova Gulnoz Ibodovna	
Shodmonova Mijgona Salimovna	
SURXONDARYO VILOYATI TURIZM SALOHIIYATINI BAHOLASHNING KOMPLEKS MODELII.....	429
Mamatov Sardor Ilyosovich	
Rashidova Nargiza Orifjon qizi	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA INTERNETMARKETING TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING EKONOMETRIK TAHLILI VA EMPIRIK NATIJALAR	435
Pirmatov Oybek Shovkat o'g'li	



XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA INSON KAPITALINI SAMARALI BOSHQARISH YO'LLARI	442
Raxmonov Shuxrat Shavkatovich	
PAXTA YETISHTIRISHDA QO'LLANILADIGAN BARQAROR QISHLOQ XO'JALIK AMALIYOTLARI: XALQARO ILMIY ADABIYOTLARNING TIZIMLI TAHLILI	447
Rashitova Nilufar Xatambayevna	
Mirkasimov Baxrom Ravshanovich	
Karimov Komiljon Xamidovich	
Abduvaliyeva Nilufar Muxamadnosir qizi	
RAQAMLI BANKLAR VA KIBERXAVFSIZLIK: ZAMONAVIY TAHDIDLAR VA HIMOA USULLARI	465
Abrorov Azizjon Akobirovich	
HUDUDLAR RIVOJLANISHI SHAROITIDA SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH UCHUN XAVFSIZLIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YONDASHUVLARI	470
Xalilov Nurullo Xamidillayevich	
HUDUDIY INVESTITSIYA OQIMLARINI DIFFERENSIAL BAHOLASH ASOSIDA MINTAQAVIY IQTISODIY O'SISHNI MANZILLI RAG'BATLANTIRISH.....	476
Ismoilov Azizbek Rustamjon o'g'li	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLİYALASHTIRISH AMALIYOTINING TAHLILI.....	485
Jumaniyazova Feruza Rajabovna	
O'ZBEKISTONDA XALQARO EKOLOGIK MAJBURIYATLARNI AMALGA OSHIRISHDA DAVLAT SIYOSATI VA HUQUQIY JAVOBGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI	491
G'ayratullayev Noxidxon Iqboljon o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA RAQAMLASHTIRISH ORQALI TIJORAT RISKLARINI KAMAYTIRISH IMKONIYATLARI	495
Sharipova Gulmira Toxirovna	
MINTAQAVIY RIVOJLANISH TUSHUNCHASI, MAZMUNI VA TARKIBIY ELEMENTLARI.....	502
Rasuljonov Abu Bakr Abdumalik o'g'li	
SANOAT KORXONALARIDA INVESTITSION FAOLIYATNING IQTISODIY MOHIYATI VA INVESTITSION LOYIHALARNI SHAKLLANTIRISH ASOSLARI	507
Sarimsaqov Sherzod Xamidovich	
DAVLAT QIMMATLI QOG'OZLARI MUOMALASI VA ULARNING DAROMADLILIK XUSUSIYATLARINING MOLİYA BOZORI DINAMIKASIGA TA'SIRI.....	512
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
KICHIK BIZNESNI MOLİYAVIY QO'LLABQUVVATLASH TIZIMINI RIVOJLANTIRISH ORQALI TADBIRKORLIK FAOLLIGINI OSHIRISH.....	518
Kamoldinov Davronbek Ikromjon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TIBBIY TA'LIMNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI: GORIZONTAL MODEL VA 2026-YILGACHA RIVOJLANISH PROGNOZI.....	522
Nazarov Baxrom Mustafayevich	
QURILISH XIZMATLARI BOZORINING IQTISODIY MOHIYATI, MAZMUNI VA XIZMATLAR IQTISODIYOTIDAGI O'RNI	529
Shakarov Davron Ulashboyevich	
QISHLOQ JOYLARDA "AQLLI AGROTURIZM" VA RAQAMLI GEOAXBOROT TEKNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY-INNOVATSION MODELLARI.....	537
Eshimova Sevinch Baxtiyor qizi	
ATMOSFERA IFLOSLANISHINING QISHLOQ XO'JALIGI HOSILDORLIGIGA TA'SIRI: HUDUDIY STATISTIKA ASOSIDAGI PANEL TAHLILI VA METODOLOGIK MUAMMOLAR.....	542
Eshpulatov Dostonbek Boxodir o'g'li	



KORXONALARNING STRATEGIK RIVOJLANISHINI BOSHQARISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH	556
Rasulov Baxtiyor Bahodirovich	
OLIY TA'LIM TIZIMIDA PROFESSOR-O'QITUVCHILAR RESURSI TAQSIMOTI: TALABA-O'QITUVCHI NISBATINING TOIFAVIY TAHLILI VA DIFFERENSIAL TARTIBGA SOLISH MASALALARI	561
Mamajonova Mukhlisakhon Muzaffar qizi	
TO'QIMACHILIK SANOATI IQTISODIY SALOHİYATINING ASOSIY DETERMINANTLARI: XORIJIY TAJRIBA VA O'ZBEKISTON UCHUN USTUVOR YO'NALISHLAR.....	567
Yuldashev G'olibjon Turgunovich	
СТРАТЕГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ УСТОЙЧИВЫМ РАЗВИТИЕМ СОВРЕМЕННЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ	576
Абдуллаева Одинахон Гайратжон қизи	
BO'LAJAK MUTAXASSISLARNI BOSHQARUV FAOLIYATIGA TAYYORLASH MUAMMOSINING ILMIY-NAZARIY TAHLILI	583
Akramov Izzat Ikromovich	
Rahmatov Shuxrat Axadovich	
ESG DISCLOSURE IN UZBEKISTAN'S STATE-OWNED ENTERPRISES: A REVIEW OF 2023 SUSTAINABILITY REPORTS.....	588
Zamira Ataniyazova	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA XODIMLARNING SHAXSIY BOSHQARUVINI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH	594
Djumaniyazova Jamila Davronovna	
SURXONDARYO VILOYATIDA TURIZM INFRATUZILMASIGA INVESTITSİYALARNI JALB ETISH HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	599
Omonova Nigora Bahodir qizi	
EKSPORTYOR SANOAT KORXONALARIDA MARKETING STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI	606
Shoxida Ibadullayeva	
TASHQI SAVDODA VALYUTA NAZORATINING AYRIM TALABLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI MAMLAKAT EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH	612
Israilov Avazbek Rustam o'g'li	
NAMANGAN VILOYATI HUDUDLARINING IQTISODIY RIVOJLANISHINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION MEXANIZMLARI	624
Ibrogimov Sherzodbek Xalimjon o'g'li	
TRANSPORT SOHASIDA AYOLLAR BANDLIGINI TA'MINLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARUV MODELINI TAKOMILLASHTIRISH HAMDA AYOLLARNING IQTISODIY HOLATIGA TA'SIRINI BAHOLASH: RIDE-HAILING (RAQAMLI PLATFORMALAR ORQALI YO'LOVCHI TASHISH) XIZMATLARI MISOLIDA.....	628
Abdukarimova Dilnozaxon Mamurjon qizi	
KICHIK BIZNESDA ISHLAB CHIQRISH RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	635
Kaypnazarova Gulshad Xojamuratovna	



KICHIK BIZNESDA ISHLAB CHIQUARISH RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Kaypnazarova Gulshad Xojamuratovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil tadqiqotchisi, i.f.d.d. (PhD)
ORCID: 0000-0001-8250-3450

Annotatsiya: Maqolada kichik biznes subyektlari faoliyatida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishning nazariy-metodologik asoslari tadqiq etilgan. Mehnat, kapital, tabiiy resurslar va tadbirkorlik qobiliyatining an'anaviy tizimi bilim, axborot, innovatsiya va raqamli texnologiyalar bilan to'ldirilgan. Ishlab chiqarish omillarining o'zaro komplementarligi, resurslardan foydalanish samaradorligi, tadbirkorlik moslashuvchanligi hamda kichik biznesning bandlik va iqtisodiy o'sishdagi o'rni asoslangan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, ishlab chiqarish resurslari, ishlab chiqarish omillari, mehnat, kapital, tadbirkorlik qobiliyati, innovatsiya, raqamlashtirish, resurs samaradorligi, raqobatbardoshlik.

Abstract: The article examines the theoretical and methodological foundations of efficient utilisation of production resources in small businesses. The traditional system of labour, capital, natural resources and entrepreneurship is expanded by incorporating knowledge, information, innovation and digital technologies. Particular attention is paid to the complementarity of production factors, resource efficiency, entrepreneurial flexibility, and the contribution of small businesses to employment, competitiveness and economic growth.

Keywords: small business, production resources, factors of production, labour, capital, entrepreneurship, innovation, digitalisation, resource efficiency, competitiveness.

Аннотация: В статье исследованы теоретико-методологические основы эффективного использования производственных ресурсов в деятельности субъектов малого бизнеса. Традиционная система производственных факторов, включающая труд, капитал, природные ресурсы и предпринимательские способности, дополнена знаниями, информацией, инновациями и цифровыми технологиями. Обоснованы взаимная комплементарность производственных факторов, эффективность использования ресурсов, предпринимательская гибкость, а также роль малого бизнеса в обеспечении занятости и экономического роста.

Ключевые слова: малый бизнес, производственные ресурсы, производственные факторы, труд, капитал, предпринимательские способности, инновации, цифровизация, эффективность использования ресурсов, конкурентоспособность.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida korxonaning bozor qiymati va raqobat ustunligi faqat uning ixtiyoridagi moddiy resurslar miqdori bilan emas, balki mavjud resurslarni qanday nisbatda birlashtirishi, qay darajada unumli ishlatishi va ularni yangi iqtisodiy imkoniyatlarga aylantira olishi bilan belgilanmoqda. Mazkur masala, ayniqsa, moliyaviy va moddiy imkoniyatlari yirik biznes subyektlariga nisbatan cheklangan kichik tadbirkorlik korxonalari uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Kichik biznesning iqtisodiy tabiati uning resurslar cheklangan sharoitda faoliyat yuritishi bilan birga, bozor talabidagi o'zgarishlarga tez moslashishi, boshqaruv qarorlarini qisqa muddatda qabul qilishi, yangi mahsulot va xizmatlarni nisbatan tez o'zlashtirishi hamda mahalliy resurslarni xo'jalik aylanmasiga jalb qilish imkoniyati bilan tavsiflanadi. Shu sababli kichik tadbirkorlik faoliyatini tadqiq qilishda ishlab chiqarish omillarining miqdoriy hajmini aniqlashning o'zi yetarli emas; ularning o'zaro bog'liqligi, almashinuvchanligi, komplementarligi va iqtisodiy natijaga ta'sir qilish mexanizmlarini ham baholash talab etiladi.



O'zbekistonda ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiy o'sish, bandlik va aholi daromadlarini oshirishning muhim institutsional bazasi sifatida rivojlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son¹ Farmonida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, xususiy sektorning iqtisodiyotdagi ulushini oshirish va biznes yuritish sharoitlarini yaxshilash ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan [1].

Maqolada foydalanilgan Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda kichik tadbirkorlikning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 53,5 foizni tashkil etgan [2]. Mazkur holat kichik biznesda ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish masalasining nafaqat mikroiqtisodiy, balki makroiqtisodiy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqotning maqsadi kichik biznes korxonalarida ishlab chiqarish omillaridan samarali foydalanishning iqtisodiy mazmunini aniqlashtirish, an'anaviy va zamonaviy ishlab chiqarish resurslarini tizimlashtirish hamda ularning o'zaro integratsiyasi asosida kichik biznes samaradorligini oshirishning konseptual yo'nalishlarini asoslashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ishlab chiqarish omillari iqtisodiyot nazariyasining eng fundamental kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Ushbu tushunchaning shakllanishi iqtisodiy tafakkurning rivojlanish jarayonlari bilan chambarchas bog'liq.

A. Smith mamlakat boyligining shakllanishida mehnat taqsimoti, ixtisoslashuv va kapital jamg'arilishiga alohida ahamiyat bergan. Uning nazariy qarashlarida mehnat unumdorligi iqtisodiy rivojlanishning asosiy shartlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi [7].

D. Ricardo ishlab chiqarilgan qiymatning mehnat, kapital va yer egalari o'rtasida taqsimlanishi masalasiga e'tibor qaratib, renta, ish haqi va foyda o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni tahlil qilgan [8]. Bu yondashuv ishlab chiqarish omillarining nafaqat qiymat yaratishdagi, balki yaratilgan daromadni taqsimlashdagi rolini ham ochib beradi.

Richard Cantillon tadbirkorni bozor noaniqligi sharoitida faoliyat yurituvchi iqtisodiy subyekt sifatida tavsiflagan. Uning konsepsiyasida tadbirkorning asosiy xususiyati kelajakdagi bozor narxlar va talab hajmi to'liq ma'lum bo'lmagan sharoitda iqtisodiy qaror qabul qilishi bilan izohlanadi [9].

Jean-Baptiste Say esa tadbirkorlikning muvofiqlashtiruvchi funksiyasiga alohida e'tibor bergan. Uning yondashuviga ko'ra, tadbirkor mehnat, kapital va tabiiy resurslarni yagona ishlab chiqarish jarayoniga birlashtiruvchi subyekt sifatida faoliyat yuritadi [5].

J.S. Mill tadbirkorlik faoliyatining muhim jihatlardan biri sifatida iqtisodiy tavakkalchilikni qayd etgan. Bunday yondashuv kichik biznes uchun ayniqsa muhim, chunki kichik korxonalarda mulkdor va boshqaruvchining funksiyalari ko'pincha bir shaxsda mujassamlashadi [10].

F.H. Knight risk va noaniqlik tushunchalarini bir-biridan farqlab, tadbirkorlik daromadini oldindan aniq hisoblab bo'lmaydigan iqtisodiy noaniqlikni o'z zimmasiga olish bilan bog'lagan [13]. Ushbu qarash kichik biznesning bozor kon'yunkturasidagi o'zgarishlarga sezgirlikni izohlash imkonini beradi.

J.A. Schumpeter tadbirkorlik nazariyasiga innovatsion mazmun kiritgan. Uning fikricha, tadbirkor ishlab chiqarish resurslarini oddiy ravishda birlashtiribgina qolmay, balki ularning yangi kombinatsiyalarini yaratadi. Yangi mahsulot, yangi texnologiya, yangi bozor, yangi xomashyo manbalari yoki yangi tashkiliy shakllarning joriy qilinishi iqtisodiy rivojlanishning asosiy manbalaridan biridir [11].

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda McConnell va Brue tomonidan ishlab chiqarish omillari yer, mehnat, kapital va tadbirkorlik qobiliyatidan iborat to'rt elementli tizim sifatida talqin etiladi [15]. Biroq raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi ishlab chiqarish omillari tarkibiga bilim, ma'lumotlar, texnologiya, intellektual kapital va innovatsion salohiyatni kiritish zaruratini yuzaga keltirdi.

O'zbekiston iqtisodchi olimlari Sh. Shodmonov va U. G'ofurov ham ishlab chiqarish omillarini iqtisodiy ne'matlar yaratishda qatnashuvchi resurslarning yaxlit tizimi sifatida tadqiq etadilar [16].

V.I. Pushkarev kichik biznesning iqtisodiy mohiyatini uning bandlikni yaratish, raqobat muhitini shakllantirish, iqtisodiy resurslarni xo'jalik aylanmasiga jalb qilish va bozor tizimining moslashuvchanligini ta'minlash funksiyalari bilan bog'laydi [4].

A.A. Davydova va A.A. Koneva kichik biznesning iqtisodiy, ijtimoiy, resurs va tashkiliy funksiyalariga alohida e'tibor qaratadi [12]. Ularning yondashuvida kichik tadbirkorlik samaradorligi faqat foyda ko'rsatkichi bilan emas, balki mavjud resurslarni faol iqtisodiy aylanmaga jalb etish imkoniyati bilan ham izohlanadi.

X.M. Rustamova kichik biznesning O'zbekiston milliy iqtisodiyotidagi ahamiyatini iqtisodiy o'sish, aholi bandligi, hududiy rivojlanish hamda bozor raqobatini kuchaytirish bilan bog'liq holda o'rganadi [3].

Mavjud tadqiqotlarni umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish omillariga oid nazariy qarashlar

1 <https://lex.uz/docs/-5841063>



“resurslar mavjudligi” konsepsiyasidan “resurslarning optimal kombinatsiyasi” konsepsiyasiga, undan esa “bilim, innovatsiya va raqamli texnologiyalar asosida resurslar unumdorligini oshirish” konsepsiyasiga evolyutsiya qilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tarixiy-mantiqiy, qiyosiy, tizimli va funksional tahlil usullaridan foydalanildi. Ishlab chiqarish omillari to'g'risidagi klassik, neoklassik va zamonaviy iqtisodiy nazariyalar o'zaro taqqoslandi.

Kontent-tahlil asosida ishlab chiqarish omillariga berilgan ilmiy ta'riflarning umumiy va farqli jihatlari aniqlanib, ularning kichik biznes faoliyatiga mos keluvchi xususiyatlari tizimlashtirildi.

Tahlilda quyidagi mantiqiy zanjir asos qilib olindi: resurs → ishlab chiqarish omili → resurslar kombinatsiyasi → ishlab chiqarish jarayoni → qo'shilgan qiymat → iqtisodiy samaradorlik → raqobatbardoshlik.

Mazkur yondashuv resurs mavjudligi va undan foydalanish samaradorligini bir-biridan farqlash imkonini beradi. Resurs korxona ixtiyorida mavjud bo'lishi mumkin, biroq u ishlab chiqarish jarayoniga samarali jalb etilmasa, to'laqonli iqtisodiy omil vazifasini bajarmaydi.

Shu asosda ishlab chiqarish resurslarini oltita funksional guruhga ajratish taklif etiladi: inson kapitali; moddiy va moliyaviy kapital; tabiiy va hududiy resurslar; tadbirkorlik va boshqaruv salohiyati; axborot-raqamli resurslar; innovatsion va institutsional imkoniyatlar.

Bunday tasnif an'anaviy ishlab chiqarish omillari bilan zamonaviy iqtisodiyotning nomoddiy resurslarini yagona tizimda tadqiq qilish imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik biznes korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish xususiyatlari yirik biznesdan bir qator jihatlari bilan farqlanadi. Birinchidan, kichik korxonalar katta hajmdagi moliyaviy va moddiy zaxiralarga ega bo'lmasligi mumkin. Shu sababli mavjud har bir resurs birligidan olinadigan iqtisodiy qaytim ularning yashovchanligi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, kichik biznesda mulkdor, tadbirkor va boshqaruvchi funksiyalarining birlashishi resurslarni taqsimlash bo'yicha qarorlarni tezlashtiradi. Natijada bozor talabidagi o'zgarishlarga nisbatan yuqori moslashuvchanlik yuzaga keladi.

Uchinchidan, kichik biznesning tashkiliy tuzilmasi nisbatan sodda bo'lgani sababli yangi texnologiyalar, mahsulotlar va boshqaruv usullarini joriy etish muddati qisqarishi mumkin (1-jadval).

1-jadval
Ishlab chiqarish omillarining zamonaviy funksional tasnifi²

Omilar guruhi	Asosiy mazmuni	Kichik biznesdagi asosiy funksiyasi
Inson kapitali	bilim, tajriba, malaka, kreativlik	mehnat unumdorligini oshirish
Moddiy-moliyaviy kapital	uskunalar, bino, aylanma mablag', investitsiya	ishlab chiqarish quvvatini shakllantirish
Tabiiy-hududiy resurslar	yer, xomashyo, lokal resurslar	tarmoq ixtisoslashuvini ta'minlash
Tadbirkorlik salohiyati	tashabbus, risk, boshqaruv, qaror qabul qilish	boshqa omillarni birlashtirish
Axborot-raqamli resurslar	ma'lumot, dasturiy vositalar, raqamli platformalar	tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish
Innovatsion-institutsional omillar	innovatsiya, davlat ko'magi, infratuzilma	uzoq muddatli rivojlanishni ta'minlash

Kichik korxonalar faoliyatida inson kapitali alohida o'rin egallaydi. Kichik biznesda xodimlarning funksional ixtisoslashuvi yirik korxonalardagi kabi chuqur bo'lmasligi mumkin. Shu sababli bir xodim bir nechta funktsiyani bajarishi, yangi vazifalarga tez moslashishi va operatsion qarorlar qabul qilishda bevosita ishtirok etishi talab qilinadi.

Maqolada keltirilgan statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda kichik tadbirkorlikda band bo'lganlar soni 10 628,7 ming kishini tashkil etgan [18]. Bu kichik biznesning mehnat resurslarini iqtisodiy faoliyatga

2 Manba: muallif ishlanmasi.



jalb qilishdagi yuqori salohiyatidan dalolat beradi. Demak, inson kapitalini rivojlantirish xarajatlarini oddiy operatsion xarajat emas, balki ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi investitsiya sifatida baholash maqsadga muvofiq.

Kapital kichik biznesning moddiy-texnik bazasini tashkil qiladi. Uning yetarlilik darajasi ishlab chiqarish quvvati, texnologik jihozlanish va korxonaning bozor talabini qondirish imkoniyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Biroq kichik korxonalar uchun kapitaldan foydalanish masalasida uning miqdoridan tashqari aylanish tezligi ham muhimdir. Kapitalning ishlab chiqarish jarayonida uzoq vaqt band bo'lib qolishi likvidlik muammolarini kuchaytiradi.

Shuning uchun kichik biznesda kapital samaradorligi: kapital miqdori + kapital aylanish tezligi + investitsiya qaytimi uchligi orqali baholanishi maqsadga muvofiq.

Kredit, subsidiyalar, kafillik va boshqa moliyaviy qo'llab-quvvatlash instrumentlaridan foydalanish imkoniyatlari ham ishlab chiqarish omillarining iqtisodiy samaradorligiga ta'sir qiluvchi institutsional shartlardan biridir.

Bu holat Cantillon, Say, Knight va Schumpeter qarashlarining zamonaviy kichik biznes nazariyasi bilan uzviyligini ko'rsatadi.

XXI asr iqtisodiyotida axborot resurslari ishlab chiqarishning yordamchi komponentidan mustaqil strategik omilga aylanmoqda. Raqamli texnologiyalar kichik biznesga marketing xarajatlarini kamaytirish, yangi bozorga chiqish, mijozlar bilan masofaviy aloqa o'rnatish, hisob-kitoblarni avtomatlashtirish va boshqaruv uchun zarur axborotni tez olish imkoniyatini beradi. An'anaviy iqtisodiy nazariyalarda ishlab chiqarish omillarining samaradorligi asosan mahsulot ishlab chiqarish hajmi, xarajatlar va foyda ko'rsatkichlari bilan tavsiflangan. Biroq zamonaviy kichik biznes sharoitida bunday yondashuv yetarli emas. Korxonaning bugungi yuqori rentabelligi uning uzoq muddatli raqobatbardoshligini kafolatlamaydi. Aksincha, innovatsiyaga investitsiya qilmaydigan, inson kapitalini rivojlantirmaydigan va raqamli texnologiyalarni joriy etmaydigan korxonaning qisqa muddatli rentabelligi yuqori bo'lsa ham, kelgusida bozordagi pozitsiyasi zaiflashishi mumkin.

Shu sababli kichik biznesda ishlab chiqarish omillaridan foydalanish samaradorligini quyidagi to'rt guruh natijalar orqali kompleks baholash maqsadga muvofiq: iqtisodiy natijadorlik — foyda, rentabellik, mehnat unumdorligi; resurs natijadorligi — material, kapital va vaqt tejamkorligi; innovatsion natijadorlik — yangi texnologiyalar va mahsulotlarni o'zlashtirish; strategik natijadorlik — bozor pozitsiyasi va uzoq muddatli raqobatbardoshlik.

Shu asosda "kichik biznesda ishlab chiqarish omillaridan samarali foydalanish" tushunchasini quyidagicha aniqlashtirish taklif etiladi:

Kichik biznesda ishlab chiqarish omillaridan samarali foydalanish — korxonaning mehnat, moddiy, moliyaviy, tabiiy, tadbirkorlik, axborot va innovatsion resurslarini bozor talablariga muvofiq optimal nisbatda birlashtirish, ularning o'zaro sinergetik ta'sirini ta'minlash va mavjud resurs birligidan yuqori qo'shilgan qiymat yaratish orqali joriy iqtisodiy natijadorlik hamda uzoq muddatli raqobatbardoshlikka erishish jarayonidir.

Mazkur ta'rifning avvalgi yondashuvlardan farqli jihati samaradorlikni alohida resurs unumdorligi bilan emas, balki resurslar mutanosibligi va sinergetik ta'siri bilan bog'lashdan iborat.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Birinchidan, ishlab chiqarish omillari nazariyasi iqtisodiy tafakkur taraqqiyoti davomida sezilarli evolyutsiyani boshdan kechirgan. Dastlab yer, mehnat va kapital bilan chegaralangan klassik model keyinchalik tadbirkorlik, bilim, axborot, texnologiya va innovatsion resurslar bilan to'ldirilgan.

Ikkinchidan, kichik biznesda ishlab chiqarish omillarining iqtisodiy ahamiyati ularning mutlaq miqdoridan ko'ra samarali kombinatsiyasiga ko'proq bog'liq. Resurslari cheklangan kichik korxonalarda mavjud imkoniyatlarni optimal taqsimlash va ulardan olinadigan iqtisodiy qaytimni oshirish strategik vazifaga aylanadi.

Uchinchidan, tadbirkorlik qobiliyati kichik biznesda mehnat, kapital, tabiiy, axborot va innovatsion resurslarni yagona ishlab chiqarish tizimiga birlashtiruvchi integrator omil vazifasini bajaradi.

To'rtinchidan, raqamli iqtisodiyot sharoitida ma'lumot, bilim va texnologiyalardan foydalanish an'anaviy ishlab chiqarish omillarining unumdorligini oshiruvchi strategik mexanizmga aylanmoqda.

Beshinchidan, kichik biznes samaradorligini faqat foyda va rentabellik kabi moliyaviy ko'rsatkichlar bilan baholash yetarli emas. Resurs tejamkorligi, innovatsion salohiyat, raqamli transformatsiya, inson kapitali rivoji va omillar o'rtasidagi mutanosiblik ham baholash tizimiga kiritilishi lozim.

Oltinchidan, ishlab chiqarish omillaridan foydalanish samaradorligini oshirish kichik biznesning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash bilan birga, aholi bandligini kengaytirish, hududiy iqtisodiy faollikni rag'batlantirish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.



Shunday qilib, kichik biznesning strategik rivojlanishini ta'minlashda alohida ishlab chiqarish resurslarini ko'paytirishga qaratilgan yondashuvdan resurslarning optimal kombinatsiyasi, mutanosibligi va sinergetik samaradorligini boshqarishga asoslangan kompleks yondashuvga o'tish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // URL: <https://lex.uz/docs/5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami YalMdagi ulushi, 2010–2026-yillar. — Toshkent, 2026. — <https://siat.stat.uz/data/420/?lang=uz>
3. Rustamova X.M.Q. Milliy iqtisodiyotda kichik biznesning o'rni va ahamiyati // Science and Education. — 2025. — Vol. 6, No. 12. — B. 330–336.
4. Пушкарев В.И. Экономическая характеристика и роль предприятий малого бизнеса // Вестник Самарской академии государственного и муниципального управления. — 2016. — № 1. — С. 1–9.
5. Say J.-B. A Treatise on Political Economy; or the Production, Distribution, and Consumption of Wealth. — Philadelphia: Claxton, Remsen & Haffelfinger, 1880. — 488 p.
6. O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 2-maydagi "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-328-son Qonuni (yangi tahrir) // <https://lex.uz/docs/2006789>
7. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. — Москва: Издательство социально-экономической литературы, 1962. — 684 с.
8. Рикардо Д. Начала политической экономии и налогового обложения. — Москва: Государственное издательство политической литературы, 1955. — 360 с.
9. Кантильон Р. Очерк о природе торговли вообще. — Москва: Дело, 2001. — 220 с.
10. Милль Дж.С. Основы политической экономии с некоторыми приложениями к социальной философии. — Москва: Эксмо, 2007. — 1040 с.
11. Schumpeter J.A. The Theory of Economic Development: An Inquiry into Profits, Capital, Credit, Interest, and the Business Cycle. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 1934. — 255 p.
12. Давыдова А.А., Конева А.А. Малое предпринимательство: сущность и функции // Стратегии бизнеса. — 2020. — Т. 8, № 12. — С. 330–336. — DOI: 10.17747/2311-7184-2020-12-330-336.
13. Knight F.H. Risk, Uncertainty and Profit. — Boston: Houghton Mifflin Company, 1921. — 381 p.
14. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 24-iyuldagi "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi O'RQ-630-son Qonuni // URL: <https://lex.uz/docs/-4910391>
15. McConnell C.R., Brue S.L. Economics: Principles, Problems, and Policies. — New York: McGraw-Hill, 1992. — 880 p.
16. Shodmonov Sh.Sh., G'ofurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2010. — 728 b.
17. Бережной А.С., Конопацкий В.В., Климов А.В. Экономическая сущность малого предпринимательства // Актуальные вопросы экономических наук. — 2015. — № 34. — С. 34–38.
18. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Kichik tadbirkorlik subyektlarida band bo'lganlar soni bo'yicha statistik ma'lumotlar. — Toshkent. — <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>